

HISOR DAVLAT QO'RIQXONASI - TABIATNING NOYOB OBYEKTI SIFATIDA

R.Usmanova – Qarshi davlat universiteti dotsenti

D.Shomurodova – Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hisor davlat qo'riqxonasinin geografik qamrovi, gidroekologik jihatdan o'ziga xos noyob va murakkab ekotizimlariga ega hudud ekanligi, tabiatining shakllanish jarayonlari, tabiat yodgorliklari, bioxilma-xilligi, flora va faunasining noyobligi va boshqa geoeologik masalasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Hisor davlat qo'riqxonasi, tog' - archa, karst jarayonlari, gidroekologik, g'or, dara, cho`qqi, flora, fauna.

ГИССАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЗАПОВЕДНИК - КАК УНИКАЛЬНЫЙ ПРИРОДНЫЙ ОБЪЕКТ

Р.Усманова – доцент Каршинского государственного университета

Д.Шомуродова – студентка Каршинского государственного
университета. Узбекистан.

Аннотация: В этой статье рассказывается о географическом охвате Гиссарского государственного заповедника, о том, что с гидроэкологической точки зрения это территория с уникальными и сложными экосистемами, о процессах формирования его природы, памятниках природы, биоразнообразии, уникальности флоры и фауны и других геоэкологических проблемах.

Ключевые слова: Гиссарский государственный заповедник, горы, карстовые процессы, гидроэкологический, горы, ущелья, овраги, флора, фауна.

GISSAR STATE NATURE RESERVE - AS A UNIQUE NATURAL SITE

R.Usmanova – Associate Professor, Karshi State University

D.Shomurodova – Student, Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract: This article describes the geographical coverage of the Gissar State Nature Reserve, the fact that from a hydroecological point of view it is an area with unique and complex ecosystems, the processes of formation of its nature, natural monuments, biodiversity, uniqueness of flora and fauna and other geoeological problems.

Keywords: Gissar State Nature Reserve, mountains, karst processes, hydroecological, mountains, canyon, ravines, flora, fauna.

Kirish. Keyingi yillarda jahonda aholi sonining o'sib borishi tabiiy resurslarga bo'lgan talabning ortishiga va geoekologik muammolarning kuchayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, yer yuzidagi landshaftlar degradatsiya jarayonlari natijasida ular muvozanatining buzilishi ekotizimlarning o'zaro bog'liqligiga va barqarorligiga salbiy ta'siri kuzatilmoqda. Qo'riqxonalanadigan hududlarning landshaft tuzilmasi va ulardagi bioxilma-xillikni saqlash va ekologik sharoitini oqilona tashkil etish zarurligini belgilaydi. Bu borada, hududlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish va uning tabiiy ekologik tizimlarini asrash uchun chora – tadqibirlarni hamda ular tabiatini barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslash keyingi yillarda dolzarb masaladan hisoblanadi.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati mamlakatimizning tog'li hududlaridan biri bo'lib, viloyatning shimoli-sharqiy va sharqiy qismlarida Hisor va Zarafshon tog'lari yastanib yotadi. Qashqadaryo viloyati arid hududda joylashgan bo'lib, tabiati tog' va tekisliklardan iborat, rang-barang landshaft xususiyatiga egadir. Tekisliklarida cho'llar bo'lsa, boy bioxilma-xillikka ega bo'lgan tog'li hududlar esa alohida ilmiy gidroekologik jihatlari bilan ajralib turadi. Shularni nazarda tutgan holda, Qashqadaryo viloyatida qator qo'riqxonalar tashkil etildi.

Qizilsuv (1975-yilda) tog'- archa qo'riqxonasi (qora archa o'rmonlari) muhofazasiga yo'naltirilgan. Unga yaqin hududda esa Miroqi (1976-yilda) qo'riqxonasi tashkil etilgan. Miroqi qo'riqxonasi Qashqadaryo daryosi havzasining yuqorisidagi soylar, jilgalar va daryolari manbalarini muhofazalashga qaratilgan. O'zbekistondagi eng yirik Seversov muzligi va Kitob-Shahrisabz botig'i hamda Qarshi cho'lini suv bilan ta'minlovchi Qashqadaryo daryosining yuqori qismidagi suv manbalarini muhofaza qilish uning vazifasiga kiritilgandir. Keyinchalik bu ikki qo'riqxonalar Hisor-Oloy tog'lari etaklarida birlashtirilib, Hisor davlat qo'riqxonasi (1983-yil) ni tashkil etildi. Dastlabki vaqtda Hisor davlat qo'riqxonasi maydoni 76 889 gektar bo'lgan, 2020-yilda esa uning maydoni 80986,1 gektarga yetkazilgan. Qo'riqxonalar tog'-archa ekotizimlarini muhofaza qiladi.

Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekistonda eng yirik va noyob tabiiy majmua hisoblanib, baland tog' landshaftlari, o'zining boy florasi (910 tur) va noyob karst g'orlari bilan ajralib turadi. Hisor davlat qo'riqxonasiga 2020 yil fevral oyidagi Hukumat qaroriga asosan tutash hududlaridan 11231,3 gektarga teng qo'riqlanma zona belgilandi. Qo'riqxonahududi sharqdan g'arbga 37 km, shimoldan janubga 90 km ga cho'zilgan. Qo'riqxonahududidagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uning asosiy vazifasidir. Bugungi kunda Hisor davlat qo'riqxonasi YUNESKO Jahon merosi obyektlarining ro'yxatiga kiritilgan.

Bu mashhur qo'riqxonama'muriy jihatdan Shahrizabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlarining tog'li hududlariga to'g'ri keladi. Tojikiston va O'zbekiston hudularida qo'riqxonachegaralariga bevosita tutashgan 30 ming aholi istiqomat qiladigan 13 ta aholi punkti mavjud. Hisor qo'riqxonasi shu nomli tog'ning tizmalari bo'ylab g'arb tomonga tarmoqlangan va o'ziga xos tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilishga mo'ljallangan.

Qo'riqxonashimolida O'zbekistonning Samarqand viloyati va Tojikistonga tashgandir. Hududning janubi va janubi-sharqi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri keladi. Hisor tog'lari qo'riqxonahududini tashkil etgan holda bir nechta bo'limdan iboratdir. Bular: 1. G'elon bo'limi (18838,1 ga.); 2. Miraki bo'limi (11821,0 ga.); 3. Tanxozdaryo bo'limi (20233,0 ga.); 4. Qizilsuv bo'limi (30094,0 ga.) [<https://.lex.uz/docs/-4741325>].

O'rta Osiyoda joylashgan bu hudud uzoq geologik davrlarda bir necha bor dengiz ostida qolgan bo'lib, tog' oraliqlarida bo'g'ozlar va lagunlar hosil bo'lgan. Baland cho'qqilar esa orol shaklida suv yuzasida ko'tarilib turgan. Hisor qo'riqxonasi shimoldan Sumsar-Shertog' va Hazratsulton tog'lariga tutashadi, ular zaminini paleozoy erasining dengiz organizmlari qoldiqlaridan hosil bo'lgan ohaktoshlar tashkil etgan holda uchraydi. Hisor qo'riqxonasi hududida mezozoy-kaynazoy davri yotqiziqlarida oqar suvlar ta'sirida yemirilishi oqibatida karst jarayonlari natijasida shakllangan o'ralar va daralar, g'orlar ko'plab uchraydi [5;31-34 b.; 6; 1090-1095 c.]. Chaqchar tog'lari asosan mezozoy ohaktoshlaridan

tuzilgan. Daryolar ohaktosh qatlamlarini yuvib, tor daralar hosil qilgan. Qalaisheron tangisida O'zbekistonning eng uzun g'orlaridan biri – mashhur Amir Temur g'ori (umumiy uzunligi 815 m) joylashgan. Qo'riqxonada tog' daryolari va soylari chuqur V–simon shakldagi, ba'zida esa qutisimon holdagi daralar va tangilarni hosil qiladi [1; C.142-173.].

Qo'riqlanadigan hududining balandligi 1750 m dan 4421 m gacha bo'lib, tog'larning o'rtacha balandligi 2500 m ni tashkil etadi. Qo'riqxonaning baland nuqtalari sifatida Xo'jekarshavor - 4303 m va To'rtqo'ylik tog'idagi Nomsiz cho'qqi hisoblanadi [9; 94 b.].

Hisor qo'riqxonasi hududi tez o'zgaruvchan iqlim sharoitiga ega bo'lib, yillik yog'inning 64% kuz va qish oylarida kuzatiladi. Bahorning oxirgi oyidan sentyabr oyigacha yog'inlarning kamligi kuzatiladi, bu hududdagi o'simliklar vegetatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tog'oldi rayonlarida esa janubi-g'arbiy va g'arbiy yo'nalishdagi shamollar ustunlik qiladi. Ayniqsa, tog'-vodiy shamollari tog'li rayonlarda o'ziga xos xush havolikni vujudga keltirgan. Bu yerda tog'-vodiy va fyon shamollari sutka davomida hamda mavsumiy holda o'z yo'nalishini o'zgartirib turishini ko'rish mumkin [3;192 b.]

Qashqadaryo havzasidagi Yakkabog'daryo, Oqsuvdaryo va Tanxozdaryolarning asosiy to'yinishi muzliklar manbalarida joylashgan. Qashqadaryo havzasida Severtsev muzligi (maydoni 1,38 km², uzunligi 22 km, kengligi 550 m), Botirboy muzligi (maydoni 1,3 km², uzunligi 2,2 km), To'rtkoylak muzligi (maydoni 0,31 km², uzunligi 1,5 km, kengligi 250 m) va boshqlar mavjuddir [3;192 b.; 7; C.44-46.]. Hisorning baland cho'qqilarda joylashgan muzliklaridan Qashqadaryo va Surxondaryo hududlari tomonga qarab bir nechta daryo (Xonaqa daryosi, G'ilondaryo, To'palangdaryo, Oqsuv va b.) oqadi [8; C.81-83]. Qo'riqxonada bir nechta katta-kichik sharsharalar bo'lib, ulardan eng balandi Suvtushar sharsharasi (balandligi 84 metr) hisoblanadi. Shuningdek, Hisor qo'riqxonasida 10 ga yaqin o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan, katta-kichik ko'llar borligi aniqlangan.

Qo'riqxonada hududida 10750 ga maydon o'rmon bilan qoplangan. Qo'riqxonaning 35 ming gektar maydoni baland tog'lar qoya va jarliklar, doimiy muzliklardan iborat. Qo'riqxonada hududida qadimiy joylar va tabiat yodgorliklari mavjud bo'lib, bular o'ziga xos ko'rinish kasb etadi. Hazrati Sulton, Xonaqa, Tulkitutgan ota, Xo'jagul ota kabi qadimiy joylar, Amir Temur g'ori, Dinozavr so'qmog'i, Suvtushar sharsharasi kabi tabiat yodgorliklari bilan mashhurdir [2; C.23.; 4:69-71 b.].

Hisor qo'riqxonasida 910 turdagi o'simliklar, 140 dan ortiq turdagi hayvonot dunyosi boyliklariga ega. Hisor qo'riqxonasida 250 turdagi dorivor zira, zirk, oltin tomir, qirqbo'g'im, chakanda, bo'ymadaron, shuvoq, sumbul, kiyik o'ti, qizilpoycha xalq tabobatida, anzur piyoz, ravoch, zira kabilar esa oziq-ovqat o'simliklari sifatida ishlatiladi. Shuningdek, qo'riqxonada florasining 80 turi esa endemikdir. Qo'riqxonadagi floraning 30 tasi, jumladan dilband lola, ulug'vor lola, nor shirach, oq parpi, sunbul kovrak, chinnigul kabilar noyob tur hisoblanib "O'zbekiston qizil kitob"ida ro'yxatga olingandir. Qo'riqxonadagi sut emizuvchilar sinfi 32 tur bo'lib, jumladan qor qoplani, qo'ng'ir ayiq, Turkiston silovsini, O'rta Osiyo qunduzi, qizil sug'ur, Sibir tog' echkisi, Jayra, tog' suvsari, va boshqalarni uchratish mumkin. Shuningdek, qo'riqxonadagi qushlarning 17 turi, sut emizuvchilarning 10 turi, hasharotlarning 6 turi, baliqlarning 1 turi "O'zbekiston qizil kitob"iga kiritilgan. Mahalliy hayvonlarning 5 turi Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining Qizil kitobiga kiritilgandir [10;11].

Hisor qo'riqxonasi o'zining go'zal manzaralari, turli bo'shliqli karst platolari, tog' va ko'llari hamda sharsharalari bilan mashhur. Qo'riqxonada hududida o'nga yaqin tabiiy yodgorliklar va bir qancha tarixiy obyektlar, jumladan, Amir Temur g'ori, Hazrat-Sulton tog'i kabi mashhur ziyoratgohlari joylashgan. Hisor qo'riqxonasi madaniy, ekologik va diniy turizmning muhim markazlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Пославская.О.Ю. Геоморфология. В кн. "Кашкадарьинская област Том-1. Природа. Ташкент. 1959.С.142-173.

2. Усмонова Р. Оптимизация использования геосистем Кашкадарьинской области в рекреационных целях. Автореф. дисс. на. геогр. наук. -Ташкент, 2002. -23 с.
3. Навотова Д. Экотуристические потенциалы Кашкадарьинской области // Ўзбекистон география жамияти ахбороти 51-жилд, 1-қисм. Тошкент – 2017. С. 81-83
4. Қашқадарё вилояти географияси. Қарши, 1994. 94 б.